

Angor yog'dusi

Gazeta 1980-yil 26-noyabrdan chiqa boshlagan
Ijtimoiy-siyosiy gazeta

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashi va tuman hokimligining gazetasi

2025-yil 13-oktabr
№ 19 (3447) dushanba.



Yo'l qoidasi — umr foydasi

Bugungi kunda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, piyoda va haydovchilarning hayotini asrab-avaylash barchamizning umumiy vazifamizdir. Yo'l harakati qoidalariga rioya etish — nafaqat qonun talabi, balki inson umriga bevosita daxldor omildir.

Kundalik hayotimizda yo'ldan foydalanishda oddiy qoidalariga amal qilish orqali ko'plab noxush holatlarning oldini olish mumkin. Masalan, haydovchilarning belgilangan tezlik me'yoriga rioya qilishi, piyodalarning belgilangan o'tish joylaridan foydalanishi, bolalarni yo'lda kattalar hamrohligisiz qoldirmaslik — inson hayotini asrab qolishda asosiy shartlardan hisoblanadi.

Afsuski, ba'zan bee'tiborlik, shoshma-

shosharlik va qoidalariga beparvolik yo'l-transport hodisalariga sabab bo'lmoqda. Har bir haydovchi rulga o'tirganda nafaqat o'zining, balki boshqalarning ham hayoti uchun mas'ul ekanini unutmazligi lozim.

Yo'l harakati qoidalariga rioya qilish — oilangizning, farzandlaringizning va yaqinlaringizning xavfsizligi demakdir. Shu bois barchamizni qonun qoidalariga qat'iy amal qilishga, yo'lda hushyor va ogoh bo'lishga chaqirib qolaman.

Esda tuting: "Yo'l qoidasi — umr foydasi".

Sanjar MENGLIBOYEV,
Angor tumani IIB JXXG inspektori

Oilaviy ajrimlarning jamiyat barqarorligiga salbiy ta'siri (psixolog nuqtai nazarida)

Jamiyatning poydevori—oila. Oila mustahkam bo'lsa, jamiyat barqaror, millat yetuk, kelajak esa ishonchli bo'ladi. Ammo so'nggi yillarda oilaviy ajrimlar soni ortib borayotgani nafaqat statistik muammo, balki ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy inqirozning ham ko'zgusidir.

Psixologik nuqtai nazardan ajrim bu— ikki inson munosabatining tugashi emas, balki butun bir ruhiy tizimning izdan chiqishi demakdir. Bu jarayonda nafaqat er-xotin, balki bolalar, qarindoshlar va keng jamoa ham ruhiy ta'sir ostida qoladi.

Ajrim—bu emotsional travma demakdir. U muhabbat, ishonch va ehtiyojning parchalanishidan kelib chiqadi. Erkak uchun ajrim ko'pincha mag'rurlik va hayotiy mag'lubiyat hissi bilan kechadi.

Ayol esa ko'p hollarda ikki his—ozodlik va aybdorlik—o'rtaida yashaydi. Bu ikki holat ruhiy tengsizlik, depressiya, agressiya, ichki iztirob va stress holatlariga sabab bo'ladi.

Psixologiyada bola oila muhitining "emotsional oynasi" hisoblanadi. Ajrim natijasida bolada himoyasizlik, tashlab ketish va aybdorlik hissi paydo bo'ladi. Ularda o'zini past baholash, agressiv xatti-harakatlar, o'z tengdoshlariga ishonmaslik, o'z kelajagiga ishonchsizlik kuzatiladi.

Ayniqsa o'smirlik davrida ajrimning ta'siri kuchli bo'lib, shaxsiy hayotida ham ishonchsizlikka moyillik yuzaga keladi.

Oilaviy ajrimlar soni ortishi bilan jamiyatda ruhiy beqarorlik, ishonchsizlik va ijtimoiy xavfsizlik tuyg'usining pasayishi sodir bo'ladi. Yoshlar oila qurishdan qo'rqadi, ayollar va erkaklar o'rtaida ishonch so'nib boradi, farzand tarbiyasida mas'uliyatsizlik kuchayadi. Natijada jamiyatda

birdamlik va hamjihatlik o'rni individualizm va hissiy sovuqlik egallaydi.

Ajrim faqat ruhiy jarayon emas — u iqtisodiy va ma'naviy beqarorlik manbai hamdir. Ajrashgan oilalarda bolalarning ta'limi va ijtimoiy holati yomonlashadi. Ota-onadan biri moddiy qiyinchilikka duch keladi, bu esa jamiyatda kam ta'minlanganlik ko'rsatkichini oshiradi.

Ma'naviy jihatdan esa muhabbat, kechirim, sabr kabi qadriyatlar so'nanib, hissiyot o'rnini manfaat egallaydi. Shu sababli ushbu salbiy oqibatlarning oldini olish uchun quyidagilar tavsiya etiladi.

1.Nikohgacha bo'lgan davrda psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish.

2.Oilaviy maslahat markazlari faoliyatini yanada faollashtirish.

3.Bolalar bilan post-ajrim terapiyasi olib borish.

4.Oila qadriyatini targ'ib etish.

5.Ajrimdan keyingi ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish juda muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda oila — jamiyatning ildizi. Agar ildiz so'lisa, daraxt ham quriydi. Ajrimlar soni ortishi — jamiyatning ichki ruhiyatidagi og'riqning ko'zgusidir. Har bir ajrimni faqat huquqiy emas, balki ruhiy-ijtimoiy jarayon sifatida ko'rish zarur.

Shuning uchun ham inson qalbida bir biriga ishonch, mehr va muhabbat hamda kechirim his tuyg'ularini shakllantirish — oilani ham, jamiyatni ham birgalikda bir tanu-bir jon bo'lib asray olamiz.

Bobur MAHMUDOV,
Angor tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi psixologi

Ayol — oila gultoji

Ayol — jamiyatning tayanchi, oilaning gultoji va millatning tarbiyachidir. Uning mehri, sabri va fidoyiligi tufayli har bir xonadonda mehr-oqibat, osoyishtalik va barqarorlik qaror topadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi faolligini oshirish, tadbirkorlik va ijtimoiy sohalaridagi ishtirokiga keng imkoniyatlar yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ayollarning hayotdagi o'rni va nufuzini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Ayol — oila muhitining qalbi hisoblanadi. Uning kulishi — oila baxti, uning shodligi — yurt ravnaqidir. Shu bois, har bir jamiyatda ayolga bo'lgan hurmat va e'tibor yuksak darajada bo'lishi lozim. Zero, ona — millat tarbiyachisi, yurtning kelajagini yaratib beruvchi buyuk kuchdir.

Mamlakatimizda "Ayol va oila" institutini mustahkamlash, xotin-qizlarni huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning faolligini oshirish maqsadida keng qamrovli



dastur va tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Shunday ekan, ayolga ehtirom — oilaga, millatga va kelajakka ehtirom demakdir.

Ayol — nafaqat oilaning gultoji, balki yurt ravnaqining, millat taraqqiyotining ham asosidir.

Gavhar
JUMAYEVA.

Ona tilim — faxrim, g'ururim

Tilga e'tibor — elga e'tibor.
Alisher NAVOIY

Har bir xalqning tarixida uning tili alohida o'rin tutadi. Til — millatning ruhi, yuragi va eng muhim belgisidir. Ona tili insonni xalqiga, yurtiga bog'laydigan, o'zligini anglatadigan eng katta boylikdir.

Shu bois, har birimiz uchun ona tilimiz — faxrimiz va g'ururimizdir.

Bugungi kunda o'zbek tili davlat tili maqomiga ega. Bu — xalqimizning uzoq yillar davomida orzu qilgan, mustaqillik bilan qo'lga kiritgan eng ulug' qadriyatlardan biridir. "Davlat tili to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi esa ona tilimizning nufuzi va mavqeini yanada mustahkamladi.

Buyuk ajdodlarimiz Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy kabi allomalar o'z asarlari bilan o'zbek tilining qudratini dunyoga ko'rsatganlar.

Ayniqsa, Navoiy hazratlari "Tilga e'tibor — elga e'tibor" degan hikmatli so'zi bilan bizni har doim tilimizni e'zozlashga da'vat etadi.

Ona tili — bu millatning ma'naviy mustaqilligi. Uni

asrash, boyitish har bir fuqaroning burchidir. Yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda sof, adabiy nutqni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki tilimizning kelajagi aynan yoshlarning tafakkuri va nutq madaniyatiga bog'liq.

Bugun O'zbekiston Respublikasida o'zbek tili barcha sohalarida — ta'lim, fan, madaniyat, davlat boshqaruvi va axborot tizimlarida keng qo'llanilmoqda. Bu esa ona tilimizning hayotiyligini, taraqqiyot sari dadil qadam tashlayotganini ko'rsatadi.

Har birimiz o'z ona tilimizda to'g'ri va go'zal so'zlashsak, uni yozma va og'zaki shaklda rivojlantirish, bu bilan Vatanimiz ravnaqi va milliy qadriyatlarimizning yuksalishiga hissa qo'shgan bo'lamiz. Chunki ona tili — xalqning jonidir, g'ururidir, faxridir.

Ona tilini sevish — bu yurti, xalqni, millatni sevish demakdir. Uni ardoqlash esa har birimizning eng oliy burchimizdir.

Shahlo JUMAYEVA,
Angor tumanidagi 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Loyiha amalga oshirilmoqda

Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondining Surxondaryo viloyati bo'linmasi tomonidan o'tkazilgan grant tanlovida Angor tumanidagi 35-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining sport zalini ta'mirlash loyihasi g'olib deb topildi.

Bu maqsadda "Surxondaryo viloyati yoshlar va ayollarni kasbga yo'naltirish markazi" hamda "O'tkir yunyodkor" xususiy korxonasi o'rtaida shartnoma tuzilib, ta'mirlash ishlari boshlandi.

Loyiha tugallangach, maktab o'quvchilari va mahalla yoshlari uchun sport bilan shug'ullanish hamda sog'lom turmush tarzi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Surxondaryo viloyati yoshlar va ayollarni kasbga yo'naltirish markazi

Tadbir bo'lib o'tdi

2025-yil 29-sentabr kuni Angor tumanidagi 1-son politexnikumida yurtimizda keng nishonlanadigan 1-oktabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan tantanalı tadbir bo'ldi o'tdi.

Tadbirda ta'lim muassasasi rahbariyati, o'qituvchilar, murabbiylar hamda o'quvchilar ishtirok etdilar. Dastlab o'quvchilar tomonidan ustozlarga bag'ishlangan she'rlar, qo'shiqlar va sahna ko'rinishlar namoyish etildi. Shuningdek, ustoz va murabbiylarning fidokorona mehnatini qadrlash, yoshlarga ilm-fan, hunar va ma'naviyatdan saboq berishdagi o'rni alohida ta'kidlandi.

Bayramona ruhda o'tgan tadbir barcha ishtirokchilarga iliq taassurot qoldirdi.

Hurmatoy XOLMURODOVA,
Angor tumani 1-son politexnikum o'qituvchisi

"ANGOR YOG'DUSI" ga
obuna boshlandi

Aziz mushtariylar! Sizning eng yaqin hamkoringiz, xabarchingiz va maslahatchingiz bo'lgan "Angor yog'dusi" gazetasiga obuna boshlandi.

Obuna Agro bank Angor tumani bo'limidagi tahririyatning h/r 20210000200430813001 MFO: 00343, INN: 200481845 raqamiga to'g'ridan-to'g'ri pul o'tkazish va naqd pul to'lash orqali amalga oshiriladi. Gazetaning yillik bahosi tahririyat bilan to'g'ridan-to'g'ri obuna bo'lganda 250000 cym.

OBUNA-2026



QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

O'ZBEKISTONDA HAYDOVCHILIK GUVOHNOMALARINI YAGONA INTERAKTIV DAVLAT XIZMATLARI PORTALI (YAIDXP, MY.GOV.UZ) ORQALI ONLAYN OLISH MUMKIN

O'zbekistonda haydovchilik guvohnomalarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YAIDXP, my.gov.uz) orqali onlayn olish mumkin bo'ldi. Endi haydovchilik guvohnomasini olish uchun Davlat xizmatlari markazi borish talab etilmaydi.

Buning uchun my.gov.uz portali orqali "Haydovchilik guvohnomasini rasmiylashtirish" xizmatiga kirib, ariza topshirish lozim.

Yangi haydovchilik guvohnomasini olish uchun ariza beruvchi fuqarolik pasporti yoki ID kartani taqdim etadi.

Bunda eski haydovchilik guvohnomasi va taloni davlat xizmatlari markazi xodimi yoki pochta kuryeriga topshirilishi shart.

Xizmat ko'rsatish muddati — Arizachi DXMga tashrif buyursa - 1 ish kuni,

Pochta orqali yetkazib berish - 2 ish kuni.

Ariza beruvchilarning YIDXPdagi shaxsiy kabinetini orqali onlayn tarzda har kuni, dam olish va bayram kunlaridan qat'iy nazar, 24 soat davomida yuborilishi mumkin.

Ayrim hollarda ariza rad etilishi mumkin, jumladan: ariza beruvchi tomonidan so'rovnomada ko'rsatilgan ma'lumotlar noto'g'ri ekanligi aniqlanganda;

ariza beruvchining milliy haydovchilik guvohnomasini olish bo'yicha amaliy hamda nazariy imtihonni muvaffaqiyatli topshirganlik fakti tasdiqlanmaganda;

haydovchilik guvohnomasi haqidagi ma'lumotlar tizimda tasdiqlanmasa;

arizachi transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilgan bo'lsa;

arizachiga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 131- (Transport vositalarini mastlik holatida boshqarish) va 136-moddasi (Transport vositalari haydovchilarining va yo'l harakati boshqa ishtirokchilarining mastligi yoki mast emasligini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlashi) lari bo'yicha ma'muriy ish qo'zg'atilgan bo'lsa, ariza beruvchi milliy haydovchilik guvohnomasini berish rad etilgan kundan boshlab o'ttiz ish kuni mobaynida davlat xizmatini ko'rsatish uchun yig'im to'lamasdan ko'rsatilgan kamchilikni bartaraf etgan holda takroran murojaat qilish huquqiga ega.

Ariza beruvchi milliy haydovchilik guvohnomasini olishda o'z ixtiyoriga asosan ID-karta yoki biometrik pasportdagi (fuqaroning xorijga chiqish biometrik pasportidagi ham) raqamli suratidan foydalanishiga ruxsat beradi yoki Davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib suratga tushadi.

Ariza beruvchi so'rovnomada milliy haydovchilik guvohnomasining pochta aloqasi orqali yetkazib berilishini ko'rsatgan bo'lsa, Davlat xizmatlari markazi xodimi nashr qilingan milliy haydovchilik guvohnomasini pochta xizmati xodimiga beradi.

Agar so'rovnomada pochta xizmatidan foydalanish nazarda tutilmagan bo'lsa, ariza beruvchining o'zi shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan so'rovnomada ko'rsatilgan Davlat xizmatlari markaziga kelib milliy haydovchilik guvohnomasini olib ketadi.

Pochta xizmati xodimi tayyor bo'lgan milliy haydovchilik guvohnomasini olgandan so'ng, ariza beruvchi bilan telefon orqali bog'lanib, so'rovnomada ko'rsatilgan manzilga (Toshkent shahri va viloyatlar markazida bir ish kuni, qolgan hududlarda ikki ish kuni ichida) milliy haydovchilik guvohnomasini yetkazib beradi.

Ariza beruvchi bilan telefon orqali kelishilgan vaqtda ariza beruvchi ushbu manzilda bo'lmasa, ariza beruvchi milliy haydovchilik guvohnomasini ushbu hududdagi pochta aloqa bo'limidan o'n ish kuni davomida olishi mumkin.

Bunda, pochta xizmati uchun to'langan to'lovlar qaytarilmaydi.

Ariza beruvchi milliy haydovchilik guvohnomasini almashtirish, yo'qolgani o'rniiga yangisini berish rad etilgan kundan boshlab 30 ish kuni mobaynida davlat xizmati ko'rsatish uchun yig'im to'lamasdan ko'rsatilgan kamchilikni bartaraf etgan holda takroran murojaat qilish huquqiga ega.

Milliy haydovchilik guvohnomasi mazkur bandning birinchi xatboshisida ko'rsatilgan muddatda ariza beruvchi tomonidan olib ketilmasa, pochta xizmati xodimi milliy haydovchilik guvohnomasini uni rasmiylashtirgan Davlat xizmatlari markaziga topshiradi. Bunda, ariza beruvchining o'zi shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan (eski namunadagi haydovchilik guvohnomasi yangisiga almashtirilganda eski namunadagi haydovchilik guvohnoma hamda uning taloni ham) so'rovnomada ko'rsatilgan Davlat xizmatlari markaziga kelib milliy haydovchilik guvohnomasini olib ketadi.

Bunda, ushbu holatda pochta xizmati uchun to'langan to'lovlar qaytarilmaydi.

Milliy haydovchilik guvohnomasi ariza beruvchiga 10 yil muddatga beriladi.

Panji BOBOMO'MINOV
Angor tumani Adliya bo'limi bosh
maslahatchisi

KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORMISIZ?

Har yili Respublikamizda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish uchun barcha sohalarida tashkiliy ishlar amalga oshiriladi. Bu jarayon, ayniqsa, favqulodda vaziyatlar xodimlari oldiga ham bir qator vazifalarni yuklaydi. Yong'in vaqtda ajralib chiqadigan tutun, korbonat angidrid va boshqa zararli hid va gazlar atmosferaga ko'tarilib, musafo havo tarkibini bulg'aydi. Eng achinarlisi, yong'inlar ko'plab insonlarning jarohatlanishiga va xatto hayotdan bevaqt ko'z yumishiga sabab bo'lishi mumkin.

Buning oldini olish maqsadida. Angor tumani hokimligida huquqni muhofaza qiluvchi va o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxona, tashkilot, muassasa va boshqa manfaatdor idoralar hamda jamoatchilik vakillari ishtirokida gaz va elektr energiyasidan to'g'ri va oqilona foydalanish, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etish yuzasidan kengaytirilgan yig'ilishlar o'tkazib kelinmoqda. Kuz-qish mavsumida turar joylarda isitish

moslamalaridan foydalanish hollari ko'payishini inobatga olib, gaz plitasini o'z boshimchalik bilan boshqa joylarga ko'chirib o'tkazish, rezina shlang orqali ulab ishlatis, qo'lbola yasalgan elektr isitish uskunalaridan foydalanish baxtsiz hodisalarga olib kelishi to'g'risida aholi ogohlantirilmoqda. Bundan tashqari, ayni vaqtda respublikamiz hududiga kirib kelayotgan eronda ishlab chiqarilgan gaz isitish pechlarining meyor talablariga javob bermasligi, ulardan foydalanish natijasida gaz isi chiqib, odamlarni zaharlashi mumkinligi haqida aholi o'rtasida keng qamrovli tushintirish ishlari olib borilmoqda.

Yong'in ortidan kelib chiquvchi salbiy holatlarning oldini olish, shuningdek, davlat mulkini ko'z qorachig'idek asrash har birimizning burchimizdir.

M.ODINABOYEV,
Angor tumani FVB boshlig'i

Oilamizni asraylik!

Yong'in kelib chiqishi oqibatida ayanchli voqealar sodir bo'ladi. Har yili dunyo bo'ylab qanchalab kishilar boshpanasiz qoladi, kimlardir salomatligidan ayriladi, yana kimdirlar esa bevaqt dunyodan ko'z yumadi. Ishlab chiqarish korxonalari va turli tashkilot binolarida sodir bo'lgan yong'inlar kishilarning samarali mehnat faoliyatiga zarar keltkazib, shu orqali iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim fuqarolar elektr va gaz tizimidagi nosozliklarni o'zlari bilganlaricha ta'mirlab, katta xatoga yo'l qo'yishadi. Oqibatda yong'in kelib chiqish xavfi ortadi va keyinchalik bu uy yegasiga ancha qimmatga tushishi mumkin. Ba'zi beg'amroq uy bekalari bo'lsa, gaz yoki elektr plita ustida ovqatni qoldirib, telefonda suhbatga yoki boshqa biror ishga berilib ketishadi. Shunday sabab bilan yong'in sodir bo'lgan xonadon sohiblariga hushyor bo'ling, deb qolamiz.

Sh.TURSUNOV,
Angor tumani FVB boshlig'i o'rinbosari

ANGOR TUMANIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN KICHIK SANOAT ZONASIGA A'ZO KORXONA RAHBARLARI VA TUMANDAGI UMUMTA'LIM MAKTABLARI DIREKTORLARI DIQQATIGA!

2025-yil 3-chorak yakuni uchun taqdim etiladigan 4-MIZ shakli (12 korxona shakliga ilova) (choraklik) Erkin iqtisodiy zona, maxsus ilmiy-texnologik zona, turistik-rekreatsion zona, erkin savdo zonasi, maxsus sanoat zonasi, kichik sanoat zonasi, texnopark ishtirokchisi bo'lgan yuridik shaxslar, klasterlar, ularning alohida bo'linmalari (kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'shgan holda) statistika hisobotini statistika organlariga 2025-yilning 20-oktabrdan kechiktirmay;

2025-yil uchun taqdim etiladigan 1-umumta'lim shakli yillik hisobotini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining umumta'lim muassasalari; Boshqa idoralarning umumta'lim muassasalari, mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'iy nazar litsenziya asosida nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar statistika organlariga 2025-yilning 30-oktabrdan kechiktirmay;

Yuqorida qayd etilgan choraklik va yillik hisobotlarni elektron taqdim etish bo'yicha tushuntirishlarni O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining www.hisobot.stat.uz rasmiy saytidan olishingiz mumkin va viloyat statistika boshqarmasining www.surxonstat.uz saytidan yoki tuman statistika bo'limidan olishlaringiz mumkin.

Statistika hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etmagan yoki noto'g'ri taqdim etgan xo'jalik, korxona va tashkilot rahbarlari va mas'ul xodimlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi "Statistika to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks"ning 215-moddasiga asosan ma'muriy javobgarlik choralari ko'rilishi to'g'risida ogohlantiramiz.

Angor tumani statistika bo'limi
Tel: 76-31-21-258

INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIK BELGILANDI

a) mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzganlik uchun ma'muriy jarima miqdori oshirildi.

MJtKning 177¹-moddasi sanksiyasida ya'ni, amalda jismoniy shaxslarga 412 ming so'mdan – 4 mln 120 ming so'mgacha jarima belgilangan bo'lsa, endilikda 2 mln 60 mingdan – 12 mln 360 ming so'mgacha, mansabdor shaxslarga amalda 2 mln 60 ming – 8 mln 240 ming so'mgacha belgilangan bo'lsa 6 mln 180 ming so'mdan – 20 mln 600 ming;

b) seleksiya yutug'iga va integral mikrosxema topologiyasiga bo'lgan huquqni buzganlik uchun (MJtKning 177²-moddasi) ma'muriy jarima kiritildi (jismoniy shaxslarga 2,6 – 8,24 mln so'm, mansabdor shaxslarga 4,12– 12,36 mln so'm);

c) patentga oid (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi va seleksiya yutug'i) huquqbuzarliklar sodir etishda foydalanilgan ashyolarni musodara qilish (MJtKning 177²-moddasi) qo'shimcha ma'muriy jazo chorasii sifatida kiritildi.

Amalda musodara qilish tariqasidagi qo'shimcha jazo tovar belgilari va mualliflik huquqiga oid huquqbuzarliklar uchun belgilangan;

d) adliya organlarining intellektual mulk obyektlari bo'lgan kontrafakt tovarlarni ko'zdan kechirish va xatlash (MJtKning 290-moddasi) vakolatlari kiritildi;

e) muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik choralari kuchaytirilib, buzilish javobgarlikka sabab bo'ladigan intellektual mulk obyektlari doirasi kengaytirildi.

Xususan, Foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutuqlari, integral mikrosxemalar mualliflarining nomulkiy huquqlarini buzish jinoiy javobgarlikka (JKning 149-moddasi) sabab bo'lishi belgilandi.

1-qismida 20,6 – 30,9 mln so'mgacha jarima yoki 5 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 2 yilgacha ozodlikni cheklash jazosi;

2-qismida (takroran, bir guruh shaxslar tomonidan, xizmat mavqeyidan foydalangan yoki juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa) 1 yildan 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, 30,9 – 412 mln so'm jarima yoki 360 – 480 soat majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 2 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash jazosi belgilandi;

f) asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan, o'zganing tovar belgisidan, geografik ko'rsatkichidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish (obyektlarning kontrafakt nusxalarini takrorlash, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa jinoiy javobgarlik (149¹ va 149²-moddalar) belgilandi.

1-qismida 20,6 – 41,2 mln so'mgacha jarima yoki 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 2 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 2 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi;

2-qismida (takroran, bir guruh shaxslar tomonidan, xizmat mavqeyidan foydalangan holda va b.) 41,2 – 61,8 mln so'mgacha jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi.

Yetkazilgan zararni qoplanganda ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi, birinchi marta jinoyat qilgan shaxs jinoyat aniqlangan kundan 30 kun ichida moddiy zarar o'rmini qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi;

g) ixtiroga, foydali modelga, sanoat namunasiga, integral mikrosxema topologiyasiga va seleksiya yutug'iga bo'lgan huquqlarni buzish (mahsulotni yoki buyumni ruxsatsiz tayyorlash, qo'llash, import qilish, sotishga taklif qilish, sotish) ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa jinoiy javobgarlik (149³-modda) belgilandi.

1-qismida 20,6 – 30,9 mln so'mgacha jarima yoki 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 2 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 2 yilgacha ozodlikni cheklash jazosi;

2-qismida (takroran, bir guruh shaxslar tomonidan, xizmat mavqeyidan foydalangan yoki juda ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etilgan bo'lsa) 30,9 – 41,2 mln so'mgacha jarima yoki 480 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 3 yilgacha ozodlikni cheklash jazosi belgilandi.

Birinchi marta jinoyat qilgan shaxs jinoyat aniqlangan kundan 30 kun ichida moddiy zarar o'rmini qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

G.TILOVQOBILOV,
Termiz shahar adliya bo'limi boshlig'i

Notariat – konstitutsiyaviy mulk daxlsizligining kafolati

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari qatorida mulk daxlsizligi alohida o'rin egallaydi. Chunki har bir fuqaroning o'z mulkidan erkin foydalanishi, uni boshqalarga o'tkazishi yoki meros qoldirishi huquqiy davlatning eng muhim tamoyillaridan biridir.

Ushbu huquqni amalda ta'minlashda notariat instituti muhim kafolat sifatida xizmat qiladi.

Notariat — fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy institutdir. U mulkiy munosabatlar, shartnomalar, meros huquqi va boshqa muhim bitimlarning qonuniyligini kafolatlaydi. Har qanday mulk bilan bog'liq hujjatni notarial tartibda tasdiqlash orqali u qonuniy kuchga ega bo'ladi hamda tarafdarning huquq va manfaatlari himoyalangani.

O'zbekiston Konstitutsiyasi fuqarolarning mulk huquqini daxlsiz deb e'lon qiladi. Notariat esa ushbu konstitutsiyaviy tamoyilni amalda ro'yobga chiqaruvchi muhim bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi. Qonuniy hujjatlarni rasmiylashtirish, bitimlarning haqiqiyiligini tekshirish, tomonlarni huquqiy oqibatlar haqida ogohlantirish — bularning barchasi mulk huquqining kafolatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Notariat —

bu nafaqat hujjatlarni tasdiqlovchi idora, balki fuqarolarning eng asosiy huquqlaridan biri bo'lgan mulk daxlsizligining konstitutsiyaviy kafolatidir. U orqali fuqarolar o'z huquqlarini himoyalashga, mulkini qonuniy tartibda boshqarishga hamda o'z manfaatlarini ishonchli himoya qilishga erishadilar. Shu bois notariat tizimini rivojlantirish va zamonaviy talablarga mos takomillashtirish huquqiy davlat barpo etishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Notarial tasdiqlovchi yozuvlar orqali mulk huquqining daxlsizligi ta'minlanadi. Masalan:

-Ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalarini notarial tasdiqlash mulkni noqonuniy o'zlashtirishning oldini oladi;

-Meros huquqini rasmiylashtirish jarayonida vorislarning huquqlari aniql belgilanadi;

-Ishonchnomalar orqali mulkni boshqarishning qonuniy mexanizmi yaratiladi.

Shunday qilib, notariat mulk egasining huquqlarini qonuniy tartibda hujjatlashtiradi va ularni boshqa shaxslar tomonidan buzilishidan himoya qiladi.

Go'zal YO'LDOSHEVA,
Notarius xodimi.

Terrorizmga qarshi kurash

Terrorizmga qarshi kurashni kuchaytirish bo'yicha aksariyat mamlakatlarda ko'p tomonlama konvensiyalar va qonun amllari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" maxsus qonun qabul qilindi (2000-yil 15-dekabr). Ushbu qonunda terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa obyektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni bironbir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining JKda javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar deb ta'riflanadi.

Qonunda davlat organlarining Terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari, terrorchilikka qarshi operatsiyaning o'tkazilishi, terrorchilik harakati oqibatida

yetkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi kabi masalalar huquqiy asoslab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining JKga ko'ra, terrorchilik harakatlarni tayyorlash va sodir etish, bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan harakat 8 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Terrorchilik harakati odam o'lishiga, boshqa og'ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa, 15 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki mamlakatdan chiqarib yuborish jazosi belgilanadi.

Terrorizmni tayyorlashda ishtirok etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o'z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og'ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda terrorchilar maqsadlari amalga oshirilishining oldini olishga faol ko'maklashgan bo'lsa, basharti bu shaxsning harakatlarida jinoyatning boshqa tarkibi bo'lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.

Bobur XRATOV,
Surxondaryo viloyati Transportda xavfsizlikni
ta'minlash boshqarmasi xodimi

(Davomi. Boshi oldingi sonlarda)

XATARLI OMAD YOXUD DO‘ZAXDAGI FARISHTA

Bu voqea yana bir kimsani qattiq qiziqtirib qo‘ydi. To‘daboshi Tayger Memon oddiy mehmonxona xizmatchisining jasoratidan, o‘zini xotirjam tutib, to‘pponcha tiragan odam ko‘ziga tik qarab turishidan hayratga tushgandi.

U qanchadan-qancha odamlarning peshonasiga qurol o‘q‘talgan, ularning nigohlarini ko‘rgan. Manglayiga ajal miltig‘ qadalib turgan odamlar talvasaga tushishi, oyog‘idan darmon ketib o‘tirib olishi, yalovirishi, telbalarcha dod solishi kerak emasmi?! Bu yigit esa... o‘z hayotida qo‘liga qurol ushlamagan ko‘rinadi, buncha dardoshu matonatni qayerdan oldi ekan!? Ana shunday yigitlar kerak-da Taygerga!

Tayger Memon balaligidanoq jinoyat olamida ulg‘aydi. Behisob odamlarning yostig‘ini quritdi. Ular orasida hech bir gunohsiz oddiy insonlar ham, ashaddiy jinotyachilar ham bor edi. Tayger bosh qo‘shgan ishda odamni to‘g‘ri ajrata bilish o‘ta muhim edi. U doim odamga bir qarab baho bera olardi. Odam tanlaishda hozirgacha adashmagan va aynan shu sababdan Dovud Ibrohimning eng ishongan odamlaridan edi. Tayger Memon bugungi mehmonxona xizmatchisini ko‘z oldiga keltirdi. Turgan gapki, bu yerlik emas. Albatta Osiyodan. Jangchi emas, qotil ham emas. Shunchaki pul uchun ishlab yurgan haqiqiy erkak. Bu bolada liderlik ruhi yaqqol ko‘rinib turibdi. Lekin xaromdan hazar qilishi, nopok ishlardan o‘zini tortishi Taygerga muvofiq kelmaydi. Taygerga yoqqan-yigitning burchga sadoqati, o‘z ishiga mas‘uliyat bilan yondashishi va albatta, faqulotda jasurligi edi. Tayger yuritayotgan ishda, asosan, o‘zini aynan shuncha tuta oladigan, xatarli vaziyatda ham xotirjamligini yo‘qotmaydigan, ichidagi qo‘rquvni dushmanidan bekita oladigan va eng muhimi, qat‘iyat bilan muzokaralarga kirisha oladigan odam kerak edi. Neajabki, bu sifatlarning barchasi boyagi mehmonxona xizmatchisida bor ekan! Demak, qanday qilib bo‘lmasin o‘sha yigitni safga qo‘shib olish kerak. Tayger zudlik bilan yugurdaklariga o‘sha yigit haqidagi barcha ma‘lumotlarni yig‘ishni, iloji boricha eng mayda detallarni ham e‘tiborsiz qoldirmaslikni buyurdi. Bu ishda g‘oyat ehtiyot bo‘lishni alohida tayinladi. Tayger o‘z to‘dasining Interpol nazariga tushib ulgurganini bildirdi. Hatto tegishli idora xodimlari to‘da yugurdaklaridan birining mobil telefonini eshitishga muvaffaq bo‘lishgani va surishtiruv harakatlari boshlanganligidan xabardor edi. Shuning uchun har bir qadamni o‘lga bosish shart edi. U faqat bir narsani aniq bilmasdi: to‘dasidagi necha odam Interpol kuzatuvchi ostida ekan?!

Interpol maxsus bo‘limi boshlig‘i Fred Guver Tayger Memon to‘dasidagi ayrim odamlar ortidan muttasil kuzatuv qo‘ygandi. Bu ishga juda sinchkov, ehtiyotkor xodimlar jalb qilindi. Kuzatuvchilar kunlik natijalarni shaxsan Guverning o‘ziga ma‘lum qilishardi. Tez orada maxsus xodimlar “Tayger Memonning odamlari “Dream” mehmonxonasi resepsionisti bo‘lgan shimoliy osiyolik yigitning ortidan kuzatishayotganini ortidan kuzatishayotganini” ma‘lum qildi. Fred Guver darhol xodimlarga “o‘sha shimoliy osiyolik resepsionist yigit haqida barcha ma‘lumotlarni to‘plash”ni, shuningdek, imkon qadar tez “nega Tayger to‘dasi o‘sha yigit bilan qiziqib qolishganini aniqlash”ni buyurdi. Sanoqli daqiqalardan so‘ng shimoliy osiyolik yigitning shaxsi aniqlandi: “Bahrriddinov Miron Rustamovich. 1992-yil O‘zbekistonda tug‘ilgan. Millati-o‘zbek. Ma‘lumoti-oliy (Guver qoshini chimirib qo‘ydi). Muqaddam sudlanmagan. Oilasidan ajralgan. Sportning yakkakurash turlari bo‘yicha sport ustasi. Yunon-Rum kurashi bo‘yicha bir necha marta turnirlarda g‘olib bo‘lgan. Olti oy oldin pul ishlash uchun Dubayga kelgan. Uning “Dream” mehmonxonasiga joylashishi uchun mehnat agentliklaridan birida vositashilik qilgan”.

Ma‘lumotlar kam, ammo mantiqiy xulosa chiqarish uchun yetarli. Guver o‘yga botdi. “O‘ldirmoqchi bo‘lishsa, surishtirishmasdan, shunchaki o‘ldirib qo‘ya qolishgan bo‘lardi. Kim bo‘ldi bu Miron? Yoki Tayger yana bir terrorga kamikadze tanlab olmoqchimidin?” O‘tmishi “toza” bo‘lgan bu yigit nega ularni qiziqtirib qolgani Fredni savollar girdobida qoldirdi. Xodimlarga mehmonxona xavfsizlik tizimini buzib kirish va kuzatuv kameralarining so‘nggi kunlardagi videoyozuvlarini ko‘chirib olishni

Romish SALIMOV,

Xatarli omad yoxud do‘zaxdagi farishta

romanidan.

(Davomi keyingi sonlarda)

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkaziladi

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish ishlarini samarali tashkil etishga oid takriflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatni rivojlantirish istiqbollarini belgilashda aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, yashash darajasi va farovonligi, qishloq xo‘jaligi holatini aniqlash juda muhim.

Bunda ro‘yxatga olish dolzarb ahamiyatga ega. Yurtimizda umummilliy ro‘yxatga olish oxirgi marta 1989-yilda o‘tkazilgan. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi, aholini har o‘n yilda, qishloq xo‘jaligini har 5 yilda kamida bir marta ro‘yxatdan o‘tkazish belgilangan.

Shu bois, 2021-yilda aholini, 2022-yilda esa qishloq xo‘jaligini sinov tariqasida ro‘yxatga olish tadbirlari o‘tkazildi. Lekin to‘laqonli ro‘yxatga olishni o‘tkazish uchun zarur omillar va xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish ma‘lum vaqtni taqozo etishi bois, bu tadbir keyinga qoldirilgan edi. Taqdimotda xalqaro tajribadan kelib chiqib hamda Jahon banki, YUNFPA va FAO tashkilotlari ishtirokida ishlab chiqilgan aholi va qishloq xo‘jaligini bir vaqtda ro‘yxatdan o‘tkazish taklifi ko‘rib chiqildi. Unga ko‘ra, O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tkazish tadbirlari 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralga qadar o‘tkaziladi. Uning dastlabki 17 kuni internet orqali, keyingi bir m oyabaynida esa “mahalla etittilgi” ishtirokida uyma-uy yurib amalga oshirilishi belgilanmoqda. Mazkur usul orqali xarajatlar sezilarli qisqarib, 1,3 trillion so‘m mablag‘ tejaladi. Shuningdek, ro‘yxatga olish jarayonlari oddiy va shaffof tarzda tashkil etiladi.

A.XUDOYOROV,

Angor tumani statistika bo‘limi boshlig‘i

Ota-onalar bilan diagnostik ishlarni tashkil etish

Ota-onalar bilan diagnostik ishlarni tashkil etish — bu ularning ruhiy-psixologik holatini aniqlash, oilaviy muhitni o‘rganish va farzand tarbiyasidagi muammolarni aniqlash uchun muhim bosqichdir. Maktab psixologlari, ijtimoiy pedagoglar va sinf rahbarlari ushbu jarayon orqali ota-onalar bilan samarali muloqot o‘rnatib, ularning farzand tarbiyasidagi roli va ruhiy holatini chuqurroq tushunish imkoniga ega bo‘ladi.

Diagnostik ishlarni tashkil etishda quyidagi bosqichlar muhim:

1.Ma‘lumot yig‘ish. Ota-onalar bilan suhbatlar, so‘rovnomalar, testlar va kuzatuvlar yordamida ularning ruhiy holati, oilaviy muhit va farzand tarbiyasidagi yondashuvlari haqida ma‘lumot to‘plash.

-Suhbatlar ota-onalarning hissiy holatini ochib beradi.

-So‘rovnomalar va testlar esa aniq psixologik ko‘rsatkichlarni aniqlashga yordam beradi.

2.Tahlil va baholash. Yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida ota-onalarning ruhiy holati, stress darajasi, oilaviy ziddiyatlar va farzand tarbiyasidagi muammolar aniqlanadi. Bu bosqichda mutaxassis ota-onalarning oilaviy vaziyatini chuqur tahlil qiladi.

3.Natijalarni muhokama qilish. Diagnostika natijalari ota-onalar bilan ochiq va ishonchli suhbatlarda muhokama qilinadi. Bu jarayon ota-onalarni o‘z holatlarini tushunishga va kerak bo‘lsa, yordam

Individual ishning afzalliklari va qo‘llash metodlari

Maktab psixologik xizmatida individual yondashuv — bu o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, emotsional ehtiyojlari, ichki kechinmalari va hayotiy tajribasini hisobga olgan holda olib boriladigan psixologik yordam shaklidir. Bu ish turida psixolog va bola o‘rtasida yakkama-yakka aloqa bo‘lib, bu ishonchli, ochiq, chuqur tahlilga asoslangan muloqotni ta‘minlaydi.

Afzalliklari:

1. Shaxsga xos yondashuv: Har bir bolaning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va muammolari hisobga olinadi.

2. Ishonchli psixologik aloqa: Bola o‘zini erkin tutadi, o‘z his-tuyg‘ularini oshkora ifoda eta oladi.

3. Maxfiylik saqlanishi:

O‘quvchi o‘zini xavfsiz his qiladi, bu esa samimiy muloqotni kuchaytiradi.

4. Muammoni chuqur aniqlash imkoniyati:

Sabab va oqibatlar chuqur tahlil qilinadi, bu esa aniq va to‘g‘ri yordamga yo‘l ochadi.

5. Muammoni bosqichma-bosqich hal qilish: Ish rejasini shaxsga mos ravishda tuzish va unga

mos tezlikda olib borish mumkin.

Qachon individual yondashuv qo‘llanadi?

-psixologik yordam so‘rasa;

-O‘zini tutishda keskin o‘zgarishlar, tajovuzkorlik, tortinchoqlik yoki befarqlik sezilsa;

-Bola jamoadan ajralgan, tengdoshlar bilan muammosi bo‘lsa;

-Oila muammolari, ajralish, befarqlik yoki zo‘ravonlik holatlari mavjud bo‘lsa;

-Psixolog diagnostika natijalariga tayanib, individual ishlash zarur degan xulosaga kelsa.

Qo‘llaniladigan metodlar:

-Individual suhbat

-Psixodiagnostika (testlar, so‘rovnomalar, loyihaviy metodlar)

-Art-terapiya (chizish, hikoya tuzish)

-Emotsional razryadka mashqlari

-Muammoni modellashtirish (metafora, rolli o‘yin, stsenariy orqali)

Dildor CHORIYEVA,

12-sonli umumiy o‘rta ta‘lim

maktabining psixologi

1-Oktabr — o‘qituvchi va murabbiylar kuni

Murabbiy – yosh avlodning nafaqat bilim olishini, balki to‘g‘ri tarbiya topishini ta‘minlaydigan inson. Aynan murabbiylar tufayli o‘quvchilar nafaqat darsliklardan, balki hayot saboqlaridan ham ibrat oladilar. Shuning uchun ham bu kun ularning xizmatlariga hurmat bajo keltirish, ularga minnatdorlik izhor etish kuni sifatida nishonlanadi.

Bugun o‘quvchilar, talabalar, shogirdlar ustozlarini tabriklab, ularga chiroyli so‘zlar aytadilar.

Bu – yoshlar uchun bir saboq: ustozni qadrlash, ilmini hurmat qilish, murabbiyga minnatdor bo‘lish – kelajakda o‘zini ustoz sifatida ko‘rishni istagan har bir inson uchun muqaddas qadriyatdir. Davlatimiz rahbari tomonidan bu yil ham mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya sohasida islohotlar samaradorligini oshirish, o‘quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish borasida munosib hissa qo‘shgan, yurtimizda ta‘limga oid investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib kelayotgan bir guruh xodimlar mukofotlandi. Bu esa ustoz va murabbiylarga bo‘lgan yuksak e‘tiborning amaliy ifodasidir.

Farzandlar ta‘lim-tarbiyasi, yosh avlodni barkamol insonlar etib kamolga yetkazishga alohida e‘tibor qaratish xalqimizga xos ezuq fazilatlardan. Xalqimizning ustoz otangdek ulug‘, degan purhikmat naqlida ham o‘qituvchi va murabbiylarga bo‘lgan samimiy ehtirom namoyon.

Ustoz darganda, har qaysi inson ko‘nglida chuqur hurmat - ehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg‘ulari, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan o‘lchab va ado qilib bo‘lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo‘ladi. Ustozlarimiz o‘giti, keksalarimiz pand-nasihatlariga amal qilib borsak, aslo kam bo‘lmaymiz. Bu bilan ustoz va murabbiylarimiz oldidagi ilk burchimizni ado etgan bo‘lamiz.

Inson, avvalo, unga bilim va marifat dunyosi sari yo‘l ochib bergan, uning qalbiga yuksak insoniy fazilatlar hissini singdirish yo‘lida zahmat chekkan ustoz va murabbiylariga nisbatan ko‘nglida hamisha minnatdorlik tuyg‘usi bilan yashaydi. Yer yuzida jamiki inson borki, uning kamolotida, shaxs sifatida shakllanishida va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida Siz azizlarning mehnatingiz, o‘ringiz beqiyos. Zahmatkash, fidoyi muallim va o‘qituvchilar o‘z shogirdlariga nafaqat bilim beradilar, balki ular qalbiga insonga xos ezuq fazilatlarini singdirib boradilar. O‘quvchisi mehr-oqibat, sadoqat, mehnatsevarlik singari xislatlar bilan ulg‘ayishini istab turli pand-nasihatlar beradi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Xuddi ota-onamiz kabi kichik yutuqlarimizdan quvonadi, bizdagi ko‘rinmas iqtidorni, qobiliyatni ilg‘ay oladi, uni rivojlantirishga harakat qiladi. Umuman olganda, hayotda turli yo‘nalishlarda yutuqlarga erishib kelayotgan, yuksak marralarni zabt etayotgan yoshlarning muvaffaqiyatida tabiiylik, ustozlarning beminnat mehnatlari samarasi mujassam. Zotan, yillar davomida berilgan ta‘lim-tarbiya, mashaqqatli mehnat mevasi vaqt o‘tib ana shunday hosil beradi.

Nurjamol HASANOVA,

Termiz davlat Pedagogika instituti talabasi

Bekor qilinadi

Angor tumani «Qorasuv» MFYda yashovchi Eshboyev Eldor Zohid o‘g‘liga tegishi «COBALT» rusumli avtomashinasining 75 C 940 TA bo‘lgan davlat raqam belgisi yo‘qolganligi uchun bekor qilindi.

Angor tumani «Qadimiy Angor» MFYda yashovchi Raxmatullayev Mirzaxid Abduraxmonovichning, «Sharq guli» MFYda yashovchi Nurayev Muzaffar Abdullayevichning «Zang-Gilambob» MFYda yashovchi Tursunov Baxridin Karimovichning haydovchilik guvohnomalari yo‘qolganligi uchun bekor qilindi.

“Archa unsimon” qurti

“Archa unsimon” qurti zararkunandaning lichinka va urg'ochilari archaning novdalari va barglarini so'rib zarar yetkazadi. Uning lichinka va urg'ochilari barcha yer ustki qismlari bilan oziqlanadi. Ayniqsa, barglar kuchli darajada zararlanadi

“Archa unsimon” qurtning kattaligi 2-3 mm bo'lib rangi sarg'ish, qizg'ish, kulrang tusda bo'ladi. Yetuk sames (erkak) zotlari mart oyi oxirida, samka (urg'ochi zot) lari aprel boshlarida chiqishi kuzatilgan. Ularning tuxum qo'yishi may oyi davomida va iyun boshlarigacha davom etib o'rtacha 280 tagacha tuxum qo'yadi.

Bu zararkunandaga qarshi kurash ishlarida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur. “Archa unsimon” qurtini ichki karantin ahamiyatga molik zararkunanda sifatida ro'yxatga olish, zararkunanda tarqalgan joylar va hududlar aniqlanishi hamda bu joylardan archa ko'chatlarining boshqa joylarga yuborilishini qat'iyon ta'qiqlanishi shart.

Zararkunandaga qarshi kurashda uning tuxumdan lichinka ochiq chiqish davrida kimyoviy preparatlarni qo'llash yuqori samara berishini inobatga olib kimyoviy ishlovlarni shu davrlarda boshlash kerak.

Zararkunanda bilan jiddiy shikastlanib qurish holatiga kelib qolgan daraxtlarni kesib unsimon qurt keng tarqalmasligi uchun ularni o'sha joyning o'zida yoqib yo'qotish shart.

Agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish (fosforli, azotli, mikroelementlar Master, Kropsheld, Vegrutlar bilan oziqlantirish).

Preparatlarni zararkunandalarning paydo bo'lishi bilan birinchi ishlov o'tkaziladi va zararkunanda butkul yo'qolguncha har o'n besh kunda kimyoviy ishlovlar olib borilishi kerak.

Fitosanitariya nazorati kuchaytirilib, qishloq xo'jaligi ekinlarini archaning novdalari va barglarini so'rib zarar yetkazadigan “Archa unsimon” qurtidan samarali



himoya qilish va manzarali daraxtlarni saqlab qolish choralari ko'rilmogda. Ish jarayonida sohaning malakali mutaxassislari tomonidan “Archa unsimon” qurtlariga qarshi kurashish uchun barcha choralar ko'rilib, tafsiyalar berib borilmoqda.

Abror OROLOV,

Zohid SAFAROV,

Angor tumani o'simliklar karantin va himoyasi bo'limi davlat inspektori



BIR CHIMDIM MA'NAVIYAT



Tumandoshlarimiz ijodidan

ONA

Ona senda qancha qazim bor,
Sanasam sanog'ini bilolmayapman.
Urunyapman kecha va kunduz,
Lekin unga yetolmayapman.
Kechalari qarading ayt necha kunduz,
Sening tunlaringa guvohdir yulduz.
Seni qiynadima men nodon bolang,
Sen aytib bermasang aytarmi qunduz.
Sochlaring oqini ko'rib shu zahot,
Yuragim bo'lgandek go'yoki vayron.
Ichim olov bo'lib yonyapti nechun,
Qara tishlaring ham qolmapti butun.
Men uchun non yopting erta sahardan,
Meni asrabsan zahmat zahardan.
Qollaringa qarab ko'zim yoshlandi,
Bellaringda kuching qolmapdi ona.
Menchi men yurdim kayfu safola,
Hali u yerda hali bu yerda.
Sengachi senga olmabman hatto,
Sen yeging kelgan arzon olmani.
Meni kechir senga ko'p va'da berdim,
Senga bergan va'dalar yaxshi hayotlar.
Umra hajga olib bormadim,
Sen shundaham qarab turding jim.
Men nodon senga ko'tarib ovoz,
Ha debman ketidan nima ham deysiz.
Mengachi menga sekin ovozla,
Og'lim deb mehringni ko'rsatding ona.

ERKAK

U ketdi g'arib qoldi qalb,
Esga soldi borligini dard.
Shumshayib qoldi yurak,
Hozir menga faqat u kerak.
Ketgan kuni rosa yig'ladim,
Xotiralar ila izladim.
Topolmadim qolgan qadamin,
Sevdirarkan ko'rgan odamin.
Shikoyatim yo'q aslo sendan,
Erkak yig'lamaydi deysishar mendan.
U odammas u o'z emas,
Unda ham qalb borligin hech kim eslamas.
Erkak chida og'riqlar bo'lsa,
Erkak chida yaqinlang olsa.
Erkak bo'l er bo'l unutma,
Erkak sher bo'lgin qaytma.
Erkak sevmaydi qalb yo'qdir unda,
Erkaklar qo'poldir mehru bunda.
Erkak siqilmas erkak unutar,
Nima bo'lsa tushdi erkak boshiga.
Erkak cheksa kashanda bu dedilar,
Erkak sevsa xotin quli dedilar.
Demadilar uning ham bor bir dardi,
Demadilar unda ham bor bir qalbi.
Aytisharkan ba'zi inson deganlar,
Erkak sevmas xiyonatgo'y deganlar.
Erkaklarning sevgisini his qilmagan,
Aytaverar osilgani bo'lmas tirgak.

Muzaffar MUSURMONQULOV.

SHAVQATSIZ DUNYO

Bugun porlagan ko'zlarim,
Shavqatsiz dunyoni ko'rdi.
Ayovsiz jang-u vafosizni,
Talashib bir qarich yerni ham.

Aka-uka buzib oqibatni,
Mul' talashib jigarlari.
Onasin ishonchin oqlamagan,
Bemehr bo'lgan odamlar.

Sayyora JUMAMURODOVA,
1-sonli politexnikum o'quvchisi.

Tabiatni asrash — insonni, vatanni asrash demakdir

Angor tumanidagi 40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida Surxondaryo viloyati Ekologiya partiyasining “Tabiatni asrash — insonni, vatanni asrash demakdir” nomli ko'chma foto va tasviriy san'at asarlari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Surxondaryo viloyati Ekologiya partiyasi rahbarining birinchi o'rinbosari O'tkir Eshonqulov ishtirok

etib, tabiatni asrash har bir insonning asosiy burchi ekanligini ta'kidladi.

Shuningdek, o'quvchilarni atrof-muhitni asrashga mas'uliyat bilan yondashishga chaqirdi.

Mazkur ko'rgazma yosh avlodga ekologik madaniyatni oshirish, tabiatga mehr va e'tibor bilan qarash tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qildi.



O'zbekiston Ekologik partiyasi Surxondaryo viloyati Kengashi, Tasviriy oyina ijodiy uyushmasi viloyat bo'limi hamda hamkor tashkilotlar ishtirokida 2025-yil — “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” doirasida ko'chma foto va tasviriy san'at ko'rgazmasi hamda davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Ushbu ko'rgazma Angor tumanidagi 40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida tashkil etildi. Tadbir davomida ishtirokchilarga ekologiyani asrash, atrof-muhitga e'tiborli munosabatda bo'lish, tabiatni asrashning ahamiyati borasida tushunchalar berildi.

Rassomlar tomonidan tabiat go'zalligini tarannum etuvchi noyob san'at asarlari namoyish etildi va ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Bunday tadbirlar aholining ekologik bilimi va madaniyatini oshirish, yoshlar orasida tabiatga mehr va mas'uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

M.MENGLIYEVA,

O'zbekiston ekologik partiyasi Angor tumani partiya tashkiloti Kengashi raisi

Quturish kasalligidan saqlanang!

Quturish qanday kasallik?

Quturish inson hayotiga chang solishi mumkin bo'lgan o'ta xavfli yuqumli kasallik hisoblanadi. Quturish kasalligini bosh va orqa miya hujayralarini kemiradigan viruslar yuzaga keltiradi.

Quturish kasalligining asosiy manbai shu kasallikka chalingan hayvonlar hisoblanadi. Quturish kasalligiga deyarli barcha hayvonlar beriluvchan bo'ladi. Kasallikni esa, ko'proq qarovsiz qolgan daydi it va mushuklar, shuningdek, bo'ri, tulki, chiya bo'rilar tarqatadi. Quturish kasalligini yuzaga keltiruvchi virus shu kasallikka chalingan hayvonlarning so'lari orqali ko'p miqdorda ajralib chiqadi va shu hayvon sog'lom hayvonni yoki odamlarni tishlaganda kasallik yuqadi.

Esda tuting! Hayvonning so'lari kasallik yuzaga chiqmagan davrda, ya'ni yashirin davrda yuqumli bo'ladi. Bu kasallikning yuqish xavfini oshiradi, sababi odamlar bu davrda hayvonning kasal ekanligini bilishmaydi.

Quturish odamga qanday yuqadi?

Kasallik ko'p hollarda odamga quturgan hayvonning tishlari orqali yuqadi. Shuningdek, kasallik teriga hamda ko'z, burun, og'iz, tomoq shilliq pardalariga kasallikka chalingan hayvonning so'lari tegishi natijasida ham yuqishi mumkin.

Kasallikka chalingan hayvonlarning tishlashigina emas, so'lagining tegishi ham juda xavfli ekanligini unutmang!

Kasallik qanday kerchadi?

Virus odam organizmiga tushishi bilan kasallik birdan boshlanmaydi. Viruslar jarohatlangan joydagi nerv tolalari orqali orqa va bosh miya tomon harakat qiladi. Viruslar miya hujayralariga yetib kelgunga qadar kasallik belgilari yuzaga chiqmaydi, ya'ni kasallik yashirin kechadi. Bu davr kasallikning yashirin davri deyiladi. Bu virusning kirish darvozasini bosh miya va orqa miya bilan oraliq masofasiga qarab 10 kundan 40 kungacha ayrim hollarda 5-6 oygacha, ba'zida esa 2 yilgacha davom etishi mumkin. Eng xavfli jarohat tananing yuqori qismi yuz, bo'yin, qo'l, panja va qorinda bo'lishidir. Bunda kasallikning yashirin davri qisqa bo'ladi. Kasallik ham tez rivojlanadi. Agar jarohat oyoqda kuzatilsa yashirin davri biroz uzoqroq bo'ladi.

Miya hujayralariga yetib kelgan viruslar zo'r berib ko'payadi. Kasallik haroratning biroz ko'tarilishi, tananing zirqillab og'irishi bilan boshlanadi. Garchi jarohat bitib ketgan bo'lsa-da, o'rni qichishadi, simillab og'riydi. Bemorning ruhi tushadi, bezovtalanadi, uyquasi qochadi, keyin esa kasallikning eng og'ir qo'zg'alish davri boshlanadi. Buni ta'rif etishga esa ba'zida til ojizlik qiladi. Bemorda qo'rquvga soladigan vasvaslar paydo bo'ladi, ko'ziga qo'rqinchil narsalar ko'rinadi. Bemorning o'ta besaranjomligi tajavvuzkor tus olishi mumkin. Bu paytda bemor g'ayri tabiiy kuchga to'lib ketadi, tashqi qiyofasi yovvoyi tus olishi mumkin. Kasallik avj olgan vaqtda bemorning nafas olishi qiyinlashadi. Bemorga havo

yetmaydi, yutunish muskullarining tortilishi natijasida bemor yutuna olmaydi, og'zidan juda ko'p miqdorda so'lak oqib boshlaydi, suv icha olmaydi, suvni ko'rganda yoki uning shildirab oqishini eshitganda yutunish muskullarining tirishib-tortilishi yanada kuchayadi. Shuning uchun bemorda suvdan qo'rqish holati yuzaga keladi. Keyinchalik salgina shovqinga yoki kuchliroq yorug'likka, shuningdek, elvizakka ham kuchli bezovtalanish paydo bo'lib, bu mushaklarning kuchli darajada tirishib-tortilishi bilan kechadi.

Oxirida esa mushaklarning falajlanish davri boshlanadi. Bu davrda bemor biroz tinchlanadi, vahima kamayadi, qo'l va oyoqlari falajlanib ishlamay qo'yadi. Bemor yurak va nafas olish mushaklarining falajlanishi oqibatida hayotdan ko'z yumadi.

Kasallikka tashxis qo'yishda quyidagilarga e'tibor beriladi, bemor bilan yoki uning ota-onasi bilan epidemiologic surushtiruv olib boriladi (Hayvon tishlaganmi, tirnaganmi yoki so'lari tekkanmi va boshqalar) hamda kasallikning o'ziga xos klinik alomatlariga qarab (Gidrofobiya ya'ni suvdan qo'rqish forobiya ya'ni yorug'likdan qo'rqish, aerofobiya ya'ni havodan qo'rqish, akusofobiya) ya'ni shovqindan qo'rqish, so'lakning kulnab oqishi, bezovtalanish) ga qarab tashxis qo'yiladi.

Kasallikning boshlang'ich davrida quyidagi kasalliklar bilan taqqoslash maqsadga muvofiq bo'ladi qoqshol, atrofdan zaharlanish, poliomeit va nerv tizimiga xos bo'lgan kasalliklardan.

Kasallik tasdiqlangandan keyin bironta bemor bu kasallikdan tuzalmagan ya'ni davosi topilmagan.

Quturish kasalligi zoonoz (hayvonlardan) yuqumli kasallik bo'lganligi uchun bu kasallikka qarshi asosiy chora tadbirlar Veterinariya-kommunal yo'nalishda olib boriladi va kasallikning manbaini yuqotishga qaratiladi. Respublikamizda quturish kasalligining asosiy va yetakchi manbai quturishga chalingan hayvonlar ya'ni (itlar) hisoblanadi. Daydi va egasiz itlarni yuqotish va xonaki egalari uy hayvonlari (it va mushuklarni) quturish kasalligiga qarshi emlatish shart hisoblanadi. Bundan tashqari, hayvonlardan tan jarohati olgan fuqoralar o'sha kuni yoki ertasiga tibbiy yordamga murojaat qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi va tibbiy yordamga murojaat qilib tegishli antrabik (quturish kasalligiga qarshi) vaksinani olishi shart (vakcina bepul qilinadi).

Birinchi tibbiy yordam quyidagi tartibda olib boriladi tan jarohati olgan joyni zudlik bilan oqar suvda kir sovun bilan yuviladi. Birinchi yordam ko'rsatilgandan keyin tezlikda tibbiy yordamga murojaat qilinadi.

Hurmatli fuqarolar! Har birimiz sog'ligimizga befarq bo'lmasligimiz kerak. Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilsangiz siz quturish kasallidan himoyalangan bo'lasiz.

Sh.MUSURMONOVA,
shifokor

Angor yog'dusi

MUASSISLAR:
Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi va tuman hokimligi

Muharrir:
JUMAYEVA
GAVHAR TOSHTEMIROVNA

Tahrir hay'ati:
J.Bahromov (hay'at raisi),
Sh.Murodov, A.Saidov,
M.Chorshanbiyeva, Sh.Omonov.

Gazeta 2012 yil 6 dekabrda viloyat matbuot va axborot xududiy boshqarmasida 11-054 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. Nashr indeksi 48643. Buyurtma 474. 1500 nusxada bosiladi. Hajmi -2 bosma toboq. Bichimi A-2. ISSN-2181-7014

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Internetdagi saytimiz: / angortimes.uz /

Gazeta “Angor yog'dusi” kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Sahifalovchi dizayner: S.Rahmatov Matn teruvchi: S.Qobulova

Gazeta «Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy. Topshirish vaqti 11:00 Topshirildi 11:30.

Tahririyat manzili: Angor qo'rg'oni, «8-Mart» ko'chasi, 15-uy. Tel: 76-31-21-367. Sotuvda erkin narxda.

Navbatchi muharrir: G.Jumayeva.